

**O'ZBEKISTONDA RAQAMLI BANKINGNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

**Ziyadullayev Zuxriddin Ilxom o'g'li**  
*Toshkent Moliya instituti stajor o'qituvchi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kunda axborot tizimining sezilarli darajada o'zgarishi asosida jamiyat, huqumat, iqtisodiyot, biznes, savdo va bank sohasidagi tub o'zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkinligi, raqamli bankning o'zni haqida, raqamli bank bugungi kunda qanday faoliyatolib borayotganligi haqida, elektron savdo va tadbirkorlik haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *bank, raqamli texnologiya, iqtisodiyot, elektron savdo, tadbirkorlik, foydalanish, imkoniyat.*

"Rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, elektron banking operatsion xarajatlarni kamaytiradi va shuning uchun banklar uchun katta foyda keltiradi. Raqamli banking daromad olish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi, chunki ular qo'shimcha foizsiz manbalardan daromad keltiradi. Qulay bo'lgan elektron bank xizmatlari va mahsulotlarining joriy etilishi banklarga bo'lajak mijozlarni jalb qilish imkonini berdi va bu ularning bozordagi ulushini oshirish imkonini berdi".

O'zbekiston qonunchiligiga ilk marta raqamli bank tushunchasi 2018-yildan boshlab kiritilgan bo'lib, "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida" Nizomning birinchi bandida raqamli bankka quyidagicha ta'rif berilgan:

"Raqamli bank — innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatini ko'rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatish bankning ichki tartib qoidalariga asosan qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi"

O'zbekistonda ilk bor "ANOR BANK" AJ 2020-yil sentyabr oyidan raqamli bank sifatida birinchi onlayn xizmatlarini ishga tushirgan hamda hozirgi kunda bir qator zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekistonda tadbirkorlarning raqamli iqtisodiyot, xususan elektron savdo imkoniyatlaridan keng foydalanishi uchun internet va bank tizimi isloh qilinishi lozim. «Raqamli tijoratga o'tishda bizga (O'zbekistondagi biznes egalari – tahr.) eng katta muammo – bank tizimi. Undagi yangi va zamonaviy bank mexanizmlarining ishlamasligi bizni, afsuski, chet el bozorlarida o'z faoliyatimizni olib borishga katta to'sqinlik qilyapti.

Masalan, faktoring tizimi ancha avval amaliyotga tatbiq etilgan, butun dunyo tijoratchilari tizimdan foydalanadi. Afsuski, bizda (O'zbekiston bank tizimida – tahr.) bu deyarli ishlamaydi. Amaliyot bo'lmagani uchun tadbirkorlar ham tushunmaydi. Faktoring nafaqat eksportda, balki ichki bozorda ham ishlamaydi. Bundan tashqari,

diskaunting, akkreditiv tizimlari ham yo‘q. Tadbirkorlar moliyaviy yechimni kredit orqali ko‘ra olyapti, aslida, kredit oxirgi yechim va ungacha mavjud ko‘p yechimlar ishlaymagan», — deydi u.

Ma'lumot uchun, faktoringda faktorfirma mijoz (tovar yetkazib beruvchi)lardan qarzdorlarning qisqa muddatli qarzlarni undirish huquqini sotib oladi va firmalarning qarzlarni (majburiyatlarini) mijozga to‘laydi, ya'ni qarzni qaytarish muddatidan oldin uning 70-90 foizini mijozga qaytaradi, qarzning qolgan qismi, foizlar chegirilgan holda qarzdorlar faktorfirma oldidagi o‘z qarzini batamom uzganidan keyin qaytariladi. Faktoringda mijoz o‘zining qarzdorlaridan qarzni undirish huquqini faktorfirmaga o‘tkazadi.

Albatta, bugungi kunda axborot tizimining sezilarli darajada o‘zgarishi asosida jamiyat, huqumat, iqtisodiyot, biznes, savdo va bank sohasidagi tub o‘zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkin.

Keling, raqamli bank o‘zi nima va bank jarayonlari takomillashtirilgan tizimi qanday yo‘lga qo‘yilganligi haqida to‘xtalib o‘tsak.

Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni imzolanganidan keyin, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo‘linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yana-da kengaytirish vazifasi yuklatilgan.

Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda 2020 yilda “Anorbank” va “TBC bank”lar raqamli bank sifatida ro‘yxatga olindi.

Darhaqiqat, “raqamli bank” tushunchasi 2015-2020 yillar davomida Yevropa davlatlarida jadallik bilan rivojlangan. Raqamli banklar o‘z mijozlariga yana-da qulaylik va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanadi.

Bugungi kunda raqamli bank sanalmish “Anorbank” va “TBC bank”lar ham o‘z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to‘liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijozni 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya'ni, raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta'mirlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi.

Albatta savol tug‘iladi, bugungi kunda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari bilan yangi tashkil etilgan raqamli banklar o‘rtasida qanday farq mavjud?

- bank filiallari tarmog‘ining kengaytirilmasligi;
- bank-mijoz o‘rtasida onlayn aloqa tizimining 100 foiz o‘rnatilganligi;
- sifatli va foydalanuvchilar uchun qulay bo‘lgan mobil ilova;
- bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar uchun eng qulay sharoitlar (ya'ni, mijoz talabidan kelib chiquvchi);
- tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi;

**Xususiy yoki davlat banklari:**

- Bank filiallar tarmoqlarining har bir tuman, shahar va viloyat kesimida faoliyat yuritishi, sifat darajasiga e'tiborning sustligi;

- Bank-mijoz o'rtasida onlayn aloqa o'rnatish holatining pastligi;

- Mobil ilovalari nomiga chiqarilib, foydalanuvchi bir marotaba kiradi va qayta kirmaslikka ahd qiladi (mobil ilovalarda oddiy kartadan-kartaga pul o'tkazish yoki kommunal to'lovlar to'lash jarayonlarida doimiy muammolar mavjud bo'lim, ko'p holatlarda tizimda uzilishlar kuzatiladi);

- bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar chiqariladi, ammo ko'p holatlarda faqat tanish-bilishchilik katta rol o'ynaydi (agar tanish bo'lmasa, o'sha mijoz 3 oy va undan ko'p muddatga sarson-sargardonlikda yuradi).

- tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlari nomigagina faoliyat yuritadi, mijoz bir savoliga javob olish uchun bankning barcha bo'limlari mutaxassislari bilan so'zlashishiga to'g'ri keladi. Mijoz vaqti, telefon aloqa xizmati uchun mijoz tomonidan to'lanadigan summa hisobga olinmaydi.

Demak, moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi bank mijozlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, moliyaviy faollikni oshirish uchun muhim bosqich sanalish bilan birga, mijozlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Ya'ni, raqamli banklarning istiqbollardan biri, bu moliyaviy tarmoqlarni raqamlashtirish evaziga xizmatlar tannarxi 40-60 foizgacha pasaytirilishiga erishiladi. Mijozlar bankka tashrifi, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt hamda mablag'larini tejashiga imkon yaratadi.

Bir so'z bilan aytganda, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga o'zgarishi bu – yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi va butun dunyo bo'ylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

**Raqamli bank** — bu elektron aylanma modelidan foydalangan holda ishlaydigan filialsiz bank. Raqamli tarmoq raqamli bankning tayanchi bo'lib, call-markaz, internet-banking, mobil banking va filiallar qo'yilgan poydevorga qo'shimchalar xolos.

- Maqola
- Munozara
- Mutolaa
  - Tahrirlash
  - Manbasini tahrirlash
  - Tarix

Vikipediya, ochiq ensiklopediya

**Raqamli bank** — bu elektron aylanma modelidan foydalangan holda ishlaydigan filialsiz bank. Raqamli tarmoq raqamli bankning tayanchi bo'lib, call-

markaz, internet-banking, mobil banking va filiallar qo'yilgan poydevorga qo'shimchalar xolos. Birinchi marta „raqamli bank“ yoki neobank atamasi 2014-yilda AQShda nashr etilgan Kris Skinnerning „Digital bank“ kitobida batafsil tavsiflangan.

Neobanklarni yaratuvchilar klassik bank tizimiga ya'ni chakana bankka qarshi chiqdilar. Neobankning mohiyati shundan iboratki, neobank o'zining mobil ilovasi asosida yuqori texnologiyali IT infratuzilmasi bilan ta'minlangan bank operatsiyalarining yuqori texnologiyalari bilan ajralib turishi kerak. Aynan neobankning o'ziga xos yuqori texnologiyali IT infratuzilmasi innovatsion bank mahsulotlari va jarayonlarini yaratish, ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash va boshqa xizmatlar bilan hamkorlik qilish uchun asos bo'lib, o'zgarishlarga tez moslashish imkonini beradi. Agar bu boshlang'ich darajada ko'zda tutilmagan bo'lsa, unda bunday neobank ma'lum vaqtdan so'ng bozordan tezda chiqarib yuborilishning barcha xavf-xatarlariga ega bo'ladi.

Asosiy farqlar quyidagicha:

1. Bank filiallarining to'liq yo'qligi;
2. 100 % „bank-mijoz“ ning onlayn rejimida o'zaro hamkorligi;
3. Tezkor mijoz onboarding(taxminan 35 marta bosish);
4. Sifatli va foydalanuvchilar uchun qulay mobil ilova, — qulay UX/UI mobil ilovasi;
5. Depozitlar va kreditlar bo'yicha bozorda mavjud bo'lganlarga nisbatan qulay shartlar;
6. 24 / 7 rejimida tezkor, qulay, ishlaydigan aloqa markazi (xizmatni qo'llab-quvvatlash).



So'ngi yillarda iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan bir qator normativ-huquqiy hujjatlari imzolandi.

Raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish va uni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyot rejasidan muhim o'rin egallaganligi tufayli iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilandi va mazkur vazifalar ijrosi o'laroq, mamlakatimizda yangi elektron hujjat

aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiyaga o'tilishi qadamma-qadam amalga oshirilmoqda.

Raqamli transformatsiya realizatsiyasi bo'yicha so'ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar qatorida aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yana-da rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi, Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi "business.gov.uz" portali ishga tushirildi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha eng istiqbolli va strategik muhim loyihalarni, shuningdek blokcheyn texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish sohasida chora-tadbirlarni amalga oshirishga karatilgan "Raqamli ishonch" jamg'armasi tashkil etildi.

Raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirish uchun mamlakatimizda zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "IT-park"lar tashkil etildi. Kripto-aktiv va blokcheyn texnologiyalar sohasidagi kompaniyalarning erkin faoliyati yo'lga qo'yildi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda avvalo telekommunikatsiya va elektron infratuzilmani takomillashtirish alohida ahamiyatga ega.

"Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham samarali vositadir " - Prezidentimizning mazkur so'zlari raqamlashtirish nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarida tejamkorlik va samaradorlikni ta'minlashi, balki korrupsiya va qora iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun samarali vosita sifatida qayd etilishi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa o'rnida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to'liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga hamda mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatiga keng qulaylik yaratish va uni yuritishni soddalashtirish, yangi innovatsion g'oyalar realizatsiyasiga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 oktyabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi ПФ-4853-sonli Farmonida belgilangan ustuvor yo'nalishlar.

2. Mamatov B.S., Xo'jamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. Toshkent moliya instituti. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2014. – 608 b.

3. Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari.

4. Xashimov A.A., Madjidov Sh.A., Mo'minova N.M. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma.